

KASBIY STANDART

Turistik xizmat ko'rsatish logistikasi

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart "Turizm logistikasi bo'yicha mutaxassis", "Turizm logistikasi bo'yicha menejer" kasblar bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari – belgilangan vazifasi, ixtisosligi, faoliyat yo'nalishiga muvofiq, turistik, sog'lomlashtirish, sport, jismoniy-sog'lomlashtirish, ta'lim va boshqa qo'shimcha xizmatlarni taqdim qiluvchi joylashtirish vositalari;

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

turistik xizmatlar – joylashtirish, ovqatlantirish, transport, ekskursiya va maslahat xizmati ko'rsatish bo'yicha xizmatlar, shuningdek turist va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan xizmatlar;

turistik yo'nalish – sayohat vaqtida turist, ekskursant tashrif buyuradigan asosiy joylarning ro'yxati bo'yicha turistning, ekskursantning rejalashtirilgan harakatlanish yo'li;

turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi);

turizm sohasining subyektlari – turistik xizmatlar majmuini yoki ularning bir qismini ko'rsatish, qo'shimcha turistik xizmatlarni (ishlarni) bajarish hamda turistlar va ekskursantlarga tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

turizm da logistika – bu sayohatchilar va turistik resurslarning harakati bilan bog'liq barcha jarayonlarni tashkil etish va boshqarish bo'lib, samarali va qulay sayohatni ta'minlashga qaratilgan.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-son farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini umumdavlat tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zMSt 640:2025 (IFUT-2.1) VM-275-son qarori;

O'zMSt 641:2025 2025-yil 18-iyul. Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025);

O'z DSt 3418:2019 Turizm xizmatlari. Turoperator va turagentlar xodimlariga doir umumiy talablar;

O'z DSt EN 13809:2019 (EN 13809:2003, IDT) Turizm xizmatlari. Turoperatorlar va turagentlar. Atamashunoslik;

O'z DSt ISO 13810:2023 (ISO 13810:2022, IDT) Turizm va unga bog'liq xizmatlar turlari. Sanoat, tabiiy, madaniy va tarixiy joylarga tashrif buyurish. Talablar va tavsiyalar.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

IFUT – Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

T/r – tartib raqami;

CRM – mijozlar bilan ishlash platformalari

SLA (Service Level Agreement)- xizmat sifati to'g'risidagi kelishuv;

SWOT-analiz - kompaniyaning kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, bozor imkoniyatlari va xavf-xatarlarini hisobga olgan holda rivojlanish istiqbollarini baholash usuli;

ABC - korxonaning resurslarini ularning ahamiyat darajasiga qarab tasniflash usuli;

XYZ - katta hajmdagi ma'lumotlarni o'rganish usuli.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Turistik xizmat ko'rsatish logistikasi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Turistik faoliyatda logistika jarayonlarini tashkil etish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	H seksiya: Tashish va saqlash 52 Omborxona xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati 52.2 Tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari 52.29 Tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari 52.29.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan, tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Turistlarga qulaylik yaratish maqsadida transport, joylashtirish, ovqatlanish va ekskursiya kabi xizmatlarni uzluksiz va qulay tarzda ta'minlash uchun ularni samarali rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish bilan shug'ullanadi	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi Malaka darajasi:
		42210010 Turizm logistikasi bo'yicha mutaxassis	5
		14390035 Turizm logistikasi bo'yicha menejer	6

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	42210010 Turizm logistikasi bo'yicha mutaxassis	A1.5	Turistlarga xizmat ko'rsatish logistik tizimini tashkil etish	A1.01.5	Turistik xizmat ko'rsatish logistik jarayonlarini rejalashtirish
				A1.02.5	Turistlarning marshrut bo'yicha logistik operatsiyalarini tashkil etish va hamrohlik qilish
				A1.03.5	Logistika jarayonlarini hujjatlashtirish bilan ta'minlash
				A1.04.5	Turistlarni joylashtirish ta'minotini amalga oshirish bo'yicha logistik jarayonlarni bajarish
2.	14390035 Turizm logistikasi bo'yicha menejer	B1.6	Turistik korxonaning logistik faoliyati sifatini boshqarish	B1.01.6	Turistik korxona logistikasini tahlil qilish, prognozlash va rejalashtirish
				B1.02.6	Joriy logistika operatsiyalari va xizmat ko'rsatish sifatini boshqarish
				B1.03.6	Logistikani ma'muriy-hujjatli va moliyaviy-shartnomaviy ta'minlash
				B1.04.6	Logistika tavakkalchiliklarini va xizmat ko'rsatish uzluksizligini boshqarish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Turizm logistikasi bo'yicha mutaxassis	
Mashg'ulot nomining kodi:	42210	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar:	Talab etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Ish joyida mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va yong'in xavfsizligi bo'yicha brifinglar o'tkazish; mehmonlar bilan o'z vakolatlari doirasida muloqot qilish uchun yetarli darajada o'zbek, rus va ingliz tillarini bilish (ingliz tili B1 darajasida); raqamli savodxonlik; uzoq vaqt davomida zehniy yuklamalar sharoitida samarali ishlash qobiliyati, marshrutlar, jadvallar, bronlash ishlari va hisobotlar tayyorlash; bir vaqtda bir necha vazifalarni bajara olish va yuqori ish unumdorligini saqlash qobiliyati; sayohatlar davomida turli iqlim va geografik shart-sharoitlarda faoliyat yuritishga tayyorlik; talab yuqori bo'lgan mavsumlarda ish hajmi oshishiga va tungi vaqtlarda ham ishlash; transportda uzoq safarlarda qatnashish, nazorat ishlarini joyida amalga oshirish; guruhga logistik xizmat ko'rsatishning uzluksizligini ta'minlash; sifatni yo'qotmasdan xarajatlarni optimallashtirish qobiliyati; marshrutlar va hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonida muddatlar, standartlar va me'yorlarga rioya qilish; logistika va monitoring uchun raqamli platformalardan foydalana olish; fors-major vaziyatlarda tegishli harakatlarni amalga oshirish; turistlar va hamkorlar bilan ijobiy muloqot o'rnatish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar::	o'rta maxsus professional ta'lim; boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim.	
Norasmiiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Turizm bo'yicha mutaxassis (faoliyat turlari bo'yicha)	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:

		6	Turizm bo'yicha menejer (faoliyat turlari bo'yicha)
		6	Turistik tashkilot direktori
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
A1.5 - Turistlarga xizmat ko'rsatishnin g logistik tizimini tashkil etish	A1.01.5 - Turistik xizmat ko'rsatishnin g logistik jarayonlarini rejalashtirish	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1. Turistik oqimlar, mavsumiylik, bozordagi talab va taklif tahlili	
		2. Transport qulayligi, turistik obyektlarning o'tkazuvchanlik qobiliyati, xavfsizlik va logistika xatarlarini hisobga olgan holda yo'nalish sxemalarini ishlab chiqish	
		3. Logistika xaritalari, yo'l varaqalari, harakat jadvallari, ovqatlanish va joylashtirish rejalarini tayyorlash	
		4. Logistika ko'rsatkichlarini hisoblash: obyektlarning o'tkazuvchanlik qobiliyati, yo'nalishlar davomiyligi, xarajatlar	
		5. Xizmat ko'rsatuvchilar (transport, ovqatlanish, ekskursiya xizmati) bilan shartnomalar tuzish	
		6. Favqulodda vaziyatlarda yo'nalishlarni optimallashtirish va turistlar oqimini qayta taqsimlash	
		7. SLA shartnoma shartlari bajarilishini nazorat qilish	
		8. Innovatsion yechimlarni sinovdan o'tkazish va joriy etish	
		9. Logistika rejalarini bo'yicha elektron hisobotlar yuritish	
		Ko'nikmalar:	
		Turistik oqimlar, mavsumiylik va infratuzilma haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish	
		Tarixiy ma'lumotlar va tendensiyalar asosida infratuzilma obyektlarining yuklanishini bashorat qilish	
		Logistik cheklovlar va xatarlarni hisobga olgan holda yo'nalishlarni ishlab chiqish	
		Raqamli band qilish va rejalashtirish vositalaridan foydalanish	
		Xarajatlarni optimallashtirish hamda fors-major va favqulodda vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish	
		Fors-major va favqulodda vaziyatlarda turistik oqimlarni qayta taqsimlash	
		Xizmat ko'rsatuvchilar bilan qulay shartlarda shartnomalar tuzish	
		Hamkorlarning transport kompaniyalari va gidlar ishonchligini baholash	
		Hujjatlarni yuritish va ularni standartlarga muvofiq kuzatib borish	
		Mijozlar va hamkorlar bilan nizolarni madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda hal etish	
		Bilimlar:	
		Kasbiy standartga qo'yiladigan talablar hamda ish tavsifi va ichki mehnat qoidalari, lavozim majburiyatlari	

		O'zbekiston Respublikasi turistik hududlarining geografiyasi Turizm xizmatlarini xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etish tamoyillari Turizm ekologiyasi, barqarorligi va inklyuzivligi asoslari Logistikaning raqamli vositalari Turizmda "oxirgi mil" ni optimallashtirish tamoyillari Turoperatorlar uchun yetkazib berish zanjirini boshqarish usullari Turlar rentabelligini hisoblash metodikasi Logistik xatarlar tasnifi Belgilangan hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalar Fors-major va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi Psixologiya va konfliktologiya asoslari, madaniyatlararo muloqot Kasbiy etika va nutq madaniyat
	A1.02.3 - Turistlarning marshrut bo'yicha logistik operatsiyalari ni tashkil etish va hamrohlik qilish	Mehnat harakatlari: 1. Xizmat ko'rsatuvchi transport, mehmonxonalar, gidlar faoliyatini real vaqt rejimida muvofiqlashtirish 2. Guruhlar harakati, kelish nuqtalari va jadvaldan chetlanishlarni monitoring qilish 3. Fors-major holatlarda, favqulodda vaziyatlarda marshrutlarni tuzatish 4. Ko'rsatish va ovqatlanish obyektlari ishlamay qolganda ularni almashtirish 5. Xizmatlarning shartnoma shartlariga muvofiqligini joyida tekshirish 6. Turistlardan fikr-mulohaza yig'ish 7. Yo'nalish bo'ylab harakatlanish haqida tezkor hisobotlar tayyorlash 8. Yo'nalish jurnallarini yuritish, hodisalarni qayd etish 9. Belgilangan operativ hujjatlarni yuritish Ko'nikmalar: To'liq bo'lmagan ma'lumotlar sharoitida qaror qabul qilish Turistik korxonaning logistik tizimi biznes jarayonlarini boshqarish vositalarini qo'llash Onlayn monitoring tizimlari va mobil ilovalardan foydalanish Jamoda gidlar, haydovchilar, turliderlar harakatlarini muvofiqlashtirish Tarjimonlar va ilovalar orqali ko'p tilli guruhlarini muvofiqlashtirish Yo'nalishdagi nizoli vaziyatlarni madaniy farqlarni hisobga olgan holda hal qilish Fors-major va favqulodda vaziyatlarda ish qobiliyatini saqlab qolish Bilimlar: Turistik hududlar va yo'nalishlar geografiyasini o'rganish va turist oqimlarini rejalashtirish usullari

		Turizmda logistika tamoyillarini tushunish hamda ovqatlanish, joylashtirish va transport xizmatlarini muvofiqlashtirish usullari
		Turizm ekologiyasi, barqarorligi va inklyuzivligi asoslarini hisobga olish tartibi.
A1.03.5 - Logistika jarayonlarini hujjatlashtirish bilan ta'minlash		Logistikaning raqamli vositalari, bronlashtirish tizimlari va tahliliy platformalardan foydalanish usullari
		Turizmda oxirgi milni optimallashtirish tamoyillari
		Asosiy yo'nalishlar uchun muqobil aylanma yo'llarni belgilash usullari
		Asosiy marshrutlar infratuzilmasining xususiyatlari va aylanib o'tish yo'llari tartibi
		Yo'lovchilar, yukxona va yuklarni tashish qoidalar
		Turoperatorlar uchun yetkazib berish zanjirini boshqarish usullari
		Turlar rentabelligini hisoblash metodikasi va usullari
		Mehnat harakatlari:
		1. Turistik logistikada qo'llaniladigan hujjatlar: yo'l varaqalari, xizmatlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomalari, marshrut varaqalarini ishlab chiqish va yangilash
		2. Hujjatlarning hayotiy davrini nazorat qilish: rasmiylashtirish, kelishish va arxivda saqlash
		3. Turistlar uchun viza, sug'urta va marshrut hujjatlarini rasmiylashtirish
		4. Vaqt o'lchovlari va tashrif joylarini ko'rsatgan holda ekskursiya marshrutlarining texnologik xaritalarini tuzish
		5. Marshrut pasportlarini rasmiylashtirish
		6. Dasturiy ta'minotdagi marshrutlar va haqiqiy ma'lumotlarning mosligini tekshirish
		7. Logistika hujjatlarini boshqaruv axborot tizimlariga integratsiyalash
		Ko'nikmalar:
		Mehmonxonalar, bekatlar, xizmat ko'rsatish punktlariga bog'langan holda yo'nalish logistikasi xaritalarini tuzish
		Vizalar, sug'urta polisilari va hujjatlarning amal qilish muddati to'g'risida avtomatik xabarnomalarni sozlash
		Obyektlarning yuklanish jadvallarini tahlil qilish, nomuvofiqliklarni aniqlash va bartaraf etish
		Hujjatlarni turli mamlakatlarning viza rejimlari talablariga moslashtirib tayyorlash
		Hujjatlarni xavfsiz saqlash va ularga kirish imkoniyatini tashkil etish
		Bilimlar:
		O'zbekiston Respublikasi turistik hududlarining geografiyasini bilish va turistlar oqimini rejalashtirish tamoyillari
		Turizmda logistika tamoyillari, jumladan ovqatlanish, joylashtirish va transport tizimlarini rejalashtirish tartibi

		Turizm ekologiyasi, barqarorligi va inklyuzivligi asoslari Logistikaning raqamli vositalari, bronlashtirish tizimlari va tahliliy platformalar bilan ishlash usullari Turizmda oxirgi milni optimallashtirish tamoyillari Asosiy yoʻnalishlar uchun muqobil aylanma yoʻllar va asosiy marshrutlar infratuzilmasining xususiyatlari Yoʻlovchilar, yukxona va yuklarni tashish qoidalari Turoperatorlar uchun yetkazib berish zanjirini boshqarish usullari Turlar rentabelligini hisoblash metodikasi Logistik xatarlarni tasniflash va ularga qarshi choralarni qoʻllash tartibi Belgilangan hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari va tartibi Fors-major va favqulodda vaziyatlarda harakat qilish tartibi Elektron hujjat aylanish tizimlari bilan ishlash usullari Mehnat harakatlari:
	A1.04.5 - Turistlarni joylashtirish taʼminotini amalga oshirish boʻyicha logistik jarayonlarni bajarish	1. Turistlarning kelishi, ketishi va joylashtirilishi boʻyicha maʼlumotlarni yigʻish, tekshirish va tizimlashtirish 2. Xona toifalari, ovqatlanish turi, ehtiyojlar inobatga olingan holda joylashtirish jadvallarini tayyorlash 3. Rejadan chetga chiqish hollarida qabul qilish va joylashtirish xizmati bilan hamkorlik qilish 4. Yoʻnalish doirasida transfer, ovqatlanish, kir yuvish xizmatlari uchun ichki buyurtmalarni rasmiylashtirish 5. Joylashtirish boʻyicha fikr-mulohazalarni toʻplash va qayd etish, shikoyatlarga tezkor munosabat bildirish, tuzatish choralari koʻrish 6. Joylashtirish obyektlarida logistika vazifalarini bajarish boʻyicha hujjatlarni yuritish 7. Logistika pasportlarini tayyorlash uchun joylashtirish obyektlarining qulaylik darajasi, foydalanish imkoniyati va sanitariya holati haqida maʼlumot toʻplash Koʻnikmalar: Joylashtirish jadvallari, marshrut topshiriqlari, yashash joyi boʻyicha logistika shakllarini tuzish va rasmiylashtirish Turistlar, gidlar, qabul qilish va joylashtirish xizmati xodimlarining soʻrovlarini qayta ishlash Turistlarning kelishi, ketishi va joylashishi boʻyicha maʼlumotlarni yigʻish, tizimlash va nazorat qilish Marshrut doirasida transferlar, ovqatlanish, kir yuvish uchun ichki buyurtmalarni rasmiylashtirish Yashash sifati haqida fikr-mulohazalarni toʻplash, shikoyatlarni qayd etish va tuzatish choralari ishtirok etish Turli toifadagi turistlar (harakati cheklangan, keksalar, oilalar) joylashtirilishining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olish Mehmonxona xodimlari va turistlar bilan muloqotda kasbiy etika va madaniyatlararo aloqa meʼyorlariga rioya qilish

		Logistika operatsiyalarini bajarish bo'yicha belgilangan shakldagi hujjatlarni yuritish
		Bilimlar:
		Kasbiy standartga qo'yiladigan talablar hamda ish tavsifi va ichki mehnat qoidalari, lavozim majburiyatlari
		Joylashtirish vositalarida joylashtirish logistikasining xususiyatlari
		Mehmonxona xonalarining tipologiyasi va tasnifi, ularni taqsimlash tamoyillari
		Imkoniyati cheklangan turistlar uchun qulay muhitga qo'yiladigan talablar
		Turistlarni qabul qilish, joylashtirish, ko'chirish va ommaviy tashriflar tartibi
		Turoperator va mehmonxona o'rtasidagi o'zaro hamkorlik tartibi
		Turistlarni logistik kuzatib borishda qo'llaniladigan hujjatlar aylanishi me'yorlari
		Psixologiya va konfliktologiya asoslari, madaniyatlararo muloqot
		Psixologik yordam ko'rsatish asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Vaziyat va uning o'zgaruvchanligini tahlil qilish, logistik faoliyatni rejalashtirish va favqulodda holatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish
		2. Turistik oqimlar, infratuzilma va mavsumiy omillarni hisobga olgan holda marshrutlarni shakllantirish va resurslarni taqsimlashda mustaqil faoliyat yuritish
		3. Xizmat ko'rsatish sifati, marshrutlar bajarilishi va logistik hujjatlarning to'g'riligi uchun individual javobgarlikni zimmasiga olish
		4. Logistik tizimning ishlashi natijalari va samaradorligi uchun mas'uliyatli yondashuvni ta'minlash
Texnik va/yoki texnologik talab	Transport vositalari va ularning monitoring tizimlari, GPS va yo'nalishni kuzatuvchi qurilmalar, onlayn bronlash tizimlari, logistika boshqaruvi uchun dasturiy ta'minot, raqamli xaritalar va marshrut rejalashtirish ilovalari, aloqa va koordinatsiya vositalari (mobil ilovalar, radioaloqa), xavfsizlik tizimlari, ekologik transport va energiya tejovchi texnologiyalar, elektron hujjat aylanishi tizimlari, axborot bazalari, mijozlar bilan ishlash platformalari (CRM), hamda logistika jarayonlarini avtomatlashtirish vositalari	

Kasbning nomi:	Turizm logistikasi bo'yicha menejer	
Mashg'ulot nomining kodi:	14390	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talabalar:	Talab etiladi	
amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Ish joyida mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik va yong'in xavfsizligi bo'yicha brifinglar o'tkazish Mehmonlar bilan o'z vakolatlari doirasida muloqot qilish uchun yetarli darajada o'zbek, rus va ingliz tillarini bilish (ingliz tili B2 darajasida), raqamli savodxonlik	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	Uzoq vaqt davomida yuqori aqliy zo'riqish sharoitida ishlash qobiliyati, yo'nalishlarni rejalashtirish, jadvallarni muvofiqlashtirish, faoliyatni nazorat qilish va hisobotlar tayyorlash; bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani samarali bajarish va ko'p vazifali rejimda yuqori unumdorlikni saqlab qolish; turistik mavsumda talab oshgan sharoitlarda, shuningdek, nostandart ish vaqtida ishlash; uzoq muddatli safarlarda ishtirok etish va yo'nalishdagi logistika jarayonlarini, shu jumladan obyektlarda shaxsan hozir bo'lib nazorat qilish; real vaqt rejimida turistik guruhlariga logistik xizmat ko'rsatishning uzluksizligini ta'minlash; ko'rsatilayotgan logistika xizmatlari sifatini saqlab qolgan holda xarajatlarni optimallashtirish; yo'nalishlarni rejalashtirish, logistika hujjatlarini rasmiylashtirish va yetkazib beruvchilarni muvofiqlashtirishda muddatlar, standartlar va me'yorlarga rioya qilish; raqamli logistika platformalari va monitoring tizimlariga egalik qilish; fors-major holatlarida va nostandart vaziyatlarda munosib xulq-atvor va qaror qabul qilish; logistika kuzatuv natijalari bo'yicha ijobiy baholar olgan holda sayyohlar, hamkorlar va ichki jamoa bilan samarali qayta aloqa o'rnatish.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Bakalavriat; o'rta maxsus professional ta'lim.	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:		
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Logistika bo'yicha menejer (faoliyat turlari bo'yicha)	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	5	Turizm logistikasi bo'yicha mutaxassis
	6	Turistik tashkilot direktori

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6- Turistik korxonaning logistik faoliyati sifatini boshqarish	B1.01.6- Turistik korxona logistikasini tahlil qilish, prognozlash va rejalashtirish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Turistik oqimlar, mavsumiylik, infratuzilma cheklovlari va logistik tor joylar tahlili
		2. Turizm obyektlari, joylashtirish va logistika resurslarining yuklanishini prognoz qilish
		3. Transport qulayligi, ekologiya, xavfsizlik, qulay muhit va xavflarni hisobga olgan holda yo'nalishlar sxemalarini ishlab chiqish
		4. Logistik jarayonlar, xarajatlar, joylashtirish vositalari va hamkorlar bilan o'zaro hamkorlikni optimallashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.
		5. Turistik korxonaning logistik siyosatini shakllantirish va unga tuzatishlar kiritish
		6. Tashqi muhit omillari, raqobat muhiti va turizm tendensiyalari monitoringi
		7. Logistik yechimlarning barqarorligi, ishonchliligi va rentabelligi parametrlarini aniqlash
		Ko'nikmalar:
		Joylashtirish obyektlari va transport yo'nalishlarining turistik oqimlari va mavsumiy yuklanishini kompleks tahlil qilish
		Turistik trendlar, bayramlar va tig'iz davrlarni hisobga olgan holda logistika xizmatlariga bo'lgan talabni prognoz qilish
		Transport qulayligi, xavf-xatarlar, ekologiya va inklyuzivlik talablarini hisobga olgan holda yo'nalishlarning logistik sxemalarini ishlab chiqish
		Logistika yo'nalishlarini rejalashtirishda infratuzilma, bozor va hamkorlik omillarining ta'sirini tahlil qilish va hisobga olish
		Turistik lar va hamkorlarning fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda logistika ssenariylarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni shakllantirish
		Turistik korxonaning logistika siyosatini o'zgartirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish
		Marshrutlarni tuzish uchun geoaxborot xizmatlari va raqamli xaritalardan foydalanish
		Rentabellik, barqarorlik va mijozlarga yo'naltirilganlikni hisobga olgan holda logistik rejalashtirishni amalga oshirish
		Strategik tahlil (SWOT, ABC/XYZ) va logistik audit usullarini qo'llash
		Logistika jarayonlarining hozirgi holati va istiqbollari to'g'risida rahbariyat uchun tahliliy hisobotlar va asoslar tayyorlash
		Bilimlar:
		Kasbiy standartga qo'yiladigan talablar hamda ish tavsifi va ichki mehnat qoidalari, lavozim majburiyatlari va kasbiy standart talablari

		O'zbekiston Respublikasining turizm, logistika, transport, joylashtirish sohasidagi qonunchilik va normativ hujjatlari Turistik logistika asoslari: yo'nalishlar, transport, joylashtirish, ovqatlanish O'zbekistonning turistik mintaqalari va mashhur xalqaro yo'nalishlar geografiyasi va xususiyatlari Turistik oqimlarni tahlil qilish va talabni prognozlash usullari Xavf-xatar, ekologiya, qulay muhit va mavsumiylikni hisobga olgan holda yo'nalishlarni qurish tamoyillari Inklyuziv turizm va barqaror logistika asoslari Yo'nalishlarni rejalashtirish, band qilish va tuzishning raqamli vositalari Strategik tahlil (SWOT, ABC, XYZ), logistik audit usullari Logistika, barqarorlik, rentabellik va sifatni baholash usullari Logistikada hamkorlik va mijozga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish asoslari Logistika yechimlari uchun hisobot va ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish formatlari
	B1.02.6- Joriy logistika operatsiyalari va xizmat ko'rsatish sifatini boshqarish	Mehnat harakatlari: 1. Logistika jarayonlarini tashkil etish va nazorat qilish: turistlarni tashish, joylashtirish, ovqatlantirish, ekskursiya va boshqa kuzatib borish 2. Ko'rsatilayotgan xizmat darajasini (sifat, SLA) baholashni o'z ichiga olgan holda xizmat ko'rsatuvchilar (mehmonxonalar, transport, ovqatlanish, ekskursiyalar) bilan shartnoma majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish 3. Logistika rejalaridan chetga chiqishlarga (kechikish, qayta bron qilish, transportni bekor qilish, joy yetishmasligi) tezkor javob berish 4. Individual ehtiyojlarga ega bo'lgan sayyohlarni qo'llab-quvvatlash va kuzatib borish (inklyuziv sharoitlar, parhezlar, yosh va oilaviy xususiyatlar, til to'siqlari) 5. Hodisalar, shikoyatlarni qayd etish va tahlil qilish, fikr-mulohazalarni to'plash, logistika xizmatlarini yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash 6. Joriy o'zgarishlarni muvofiqlashtirish va turistik korxona logistika zanjirining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun joylashtirish vositalarini qabul qilish va joylashtirish xizmati, haydovchilar, gidlar, turistik yetakchilar, yo'nalishlar menejerlari bilan hamkorlik qilish 7. Logistika jadvallari, yo'nalishlariga rioya etilishini nazorat qilish va manfaatdor tomonlarni o'z vaqtida xabardor qilish Ko'nikmalar: Logistika jarayonining barcha ishtirokchilari (qabul qilish va joylashtirish xizmati, haydovchilar, gidlar, oziq-ovqat yetkazib beruvchilar va boshqalar) harakatlarini real vaqt rejimida muvofiqlashtirish.

		Logistika xizmatlarining yo'nalishlar, standartlar va kelishuvlarga muvofiqligini nazorat qilish
		Raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish (CRM, GPS kuzatuvi, onlayn jadvallar, mobil ilovalar)
		Rejadan chetga chiqishlarda javob berish algoritmlarini qo'llash
		Kam harakatlanuvchi turistlar va boshqa toifalar uchun maxsus logistika shartlariga rioya etilishini ta'minlash
		Hodisalarni qayd etish va tahlil qilish, tuzatish choralari bo'yicha takliflar ishlab chiqish
		Mehmonxonalar, transport kompaniyalari xodimlari, turistlar va ularning vakillari bilan aloqa o'rnatish
		SLA va boshqa ko'rsatkichlar asosida logistika xizmatlari sifatini baholash
		Joriy logistika masalalari bo'yicha yo'riqnomalar va muvofiqlashtiruvchi yig'ilishlar o'tkazish
		Bilimlar:
		Kasbiy standartga qo'yiladigan talablar hamda ish tavsifi va ichki mehnat qoidalari, lavozim majburiyatlari
		Turizmga logistikani operatsion boshqarish asoslari
		Xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bilan o'zaro hamkorlik qoidalari: transport, joylashtirish, ovqatlanish, ekskursiyalar
		Turistlarga inklyuziv va xavfsiz xizmat ko'rsatish bo'yicha me'yoriy talablar
		Logistika xizmatlari (shu jumladan SLA) sifati ko'rsatkichlari va standartlari, ularni baholash usullari
		Logistika yo'nalishlari, chetga chiqishlar, shikoyatlar va hodisalarni hujjatlashtirish tartibi
		Logistikani boshqarishning raqamli vositalari
		Favqulodda vaziyatlar va nostandart vaziyatlarda harakat qilish algoritmlari (tibbiy yordam, zirhni bekor qilish, texnik nosozliklar)
		Psixologiya va konfliktologiya asoslari, madaniyatlararo muloqot
		Kasbiy etika va nutq madaniyat
	B1.03.6 - Logistikani ma'muriy-hujjatli va moliyaviy-shartnomaviy ta'minlash	Mehnat harakatlari:
		1. Logistika xizmatlarini yetkazib beruvchilar: joylashtirish vositalari, transport kompaniyalari, gidlar va ekskursiya byurolari bilan shartnomalarni yuritish
		2. Yo'nalish, joylashtirish, transfer va qo'shimcha hujjatlarni tuzish va yuritish
		3. Logistika ma'lumotlari va hujjatlarini korporativ axborot platformalariga (CRM tizimlari, Excel, arxiv saqlash joylari, bulutli ma'lumotlar bazalari) integratsiyalash
		4. Korxonaning ichki me'yorlari va tarmoq standartlariga muvofiq logistika hujjatlarining to'g'riligi va dolzarbligini nazorat qilish

		5. Logistika xizmatlari ko'rsatish natijalari bo'yicha hisobot hujjatlarini (shu jumladan dalolatnomalar, tabellar, qaydnomalar, yo'nalish varaqalari) tayyorlash
		6. Logistika shartnomalaridagi o'zgarishlarni kelishish va kuzatib borish, shu jumladan qayta imzolash, jadvallar va xizmatlarga tuzatishlar kiritish
		Ko'nikmalar:
		Korxona reglamentiga va turizm sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilgan holda shartnoma hujjatlarini yuritish
		Turmahsulotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yo'nalish va mehmonxona hujjatlarini tuzish va tekshirish
		Logistika ma'lumotlarini saqlash, tizimlashtirish va integratsiya qilish uchun raqamli platformalardan foydalanish
		Jadvallar, shablonlar, bandlov va hisobot tizimlari bilan ishlash
		Hamkorlar bilan shartnomaviy va moliyaviy o'zgarishlarni muvofiqlashtirish
		Logistika bo'yicha tahliliy va hisobot hujjatlarini tayyorlash
		Bilimlar:
		Kasbiy standartga qo'yiladigan talablar hamda ish tavsifi va ichki mehnat qoidalari, lavozim majburiyatlari
		Shartnomalar, hisobvaraqlar, dalolatnomalar, yo'nalish varaqalari, vaucherlarga qo'yiladigan normativ talablar
		Xizmat ko'rsatuvchilar bilan moliyaviy hamkorlik tamoyillari: oldindan to'lov, hisobot, qaytarish, kompensatsiya
		Hujjat aylanishi va mijozlarni hisobga olish raqamli platformalari (CRM, elektron arxivlar)
		Hujjat aylanishi va biznes hamkorlar bilan o'zaro aloqalar etikasi
		Turizmda logistika hisoboti formatlari, shablonlari va hujjatlarga qo'yiladigan talablar
		Turizm logistikasida ish yuritish va hujjatlar aylanishi asoslari
		Psixologiya va konfliktologiya asoslari, madaniyatlararo muloqot
		Kasbiy etika va nutq madaniyat
B1.04.6 – Logistika tavakkalchiliklarini va xizmat ko'rsatish uzluksizligini boshqarish		Mehnat harakatlari:
		1. Turistik xizmat ko'rsatish logistikasiga ta'sir qiluvchi xavflarni tahlil qilish: transport uzilishlari, joylashtirish muammolari, ovqatlanishni bekor qilish, favqulodda vaziyatlar
		2. Muqobil yo'nalishlar, joylashtirishning zaxira variantlari va logistikaning zaxira sxemalarini ishlab chiqish
		3. Favqulodda vaziyatlarda xodimlar uchun yo'riqnomalar va tartib-qoidalarni ishlab chiqish
		4. Shikoyatlar va hodisalarga munosabat bildirish, tuzatish harakatlarini tashkil etish
		5. Postfaktum tahlil o'tkazish va kelgusida xavflarni kamaytirish bo'yicha profilaktik taklif va tavsiyalar ishlab chiqish
		Ko'nikmalar:

		Logistik xavflarni, shu jumladan tabiiy, texnik, infratuzilmaviy, inson omillarini aniqlash va tasniflash
		Javob ssenariylari va zaxira logistika sxemalarini ishlab chiqish
		Hodisalar yuz berganda xodimlar uchun yoʻriqnomalar va nazorat roʻyxatlarini ishlab chiqish
		Xodimlarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga oʻrgatishni tashkil etish
		Tezkor choralar koʻrish va logistika uzilishlari oqibatlarini minimallashtirishni muvofiqlashtirish
		Hodisalar boʻyicha maʼlumotlarni toʻplash va tahlil qilish hamda takrorlanishlarning oldini olish boʻyicha takliflar tayyorlash
		Inqiroz sharoitida logistik zanjirning barqarorligini saqlab qolish
		Bilimlar:
		Kasbiy standartga qoʻyiladigan talablar hamda ish tavsifi va ichki mehnat qoidalari, lavozim majburiyatlari
		Logistikada risk-menejment va inqirozga qarshi boshqaruv asoslari
		Turizmda logistik risklar tipologiyasi
		Zaxiraviy rejalashtirish va logistika uzluksizligini taʼminlash tamoyillari
		Turizm sohasida favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik standartlari va normativ hujjatlar
		Hodisalarni tahlil qilish amaliyoti va tuzatish harakat rejalarini tuzish
		Psixologiya va konfliktologiya asoslari, madaniyatlararo muloqot
		Kasbiy etika va nutq madaniyat
	Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Mavjud logistik vaziyat va uning oʻzgarishini tahlil qilish, noaniqlik va fors-major holatlari sharoitida mustaqil qarorlar qabul qilish
		2. Turistik oqimlar, infratuzilma va mavsumiy omillarni hisobga olgan holda yoʻnalishlarni shakllantirish va resurslarni taqsimlashni oʻz ichiga olgan logistika tadbirlarini mustaqil rejalashtirish
		3. Taqdim etilayotgan logistika xizmatlari sifati, yoʻnalishlar va hujjatlarning toʻgʻriligi, xizmat koʻrsatish muddatlari va standartlariga rioya etilishi uchun shaxsiy javobgarlik
		4. Turistik korxona logistika tizimi faoliyatining natijadorligi va samaradorligini taʼminlash
		5. Logistika jarayonlarini yaxshilash va sifatni yoʻqotmasdan xarajatlarni kamaytirish boʻyicha yechimlarni taklif qilishda tashabbuskorlik
Texnik va/yoki texnologik talab	Transport vositalari va ularning monitoring tizimlari, GPS va yoʻnalishni kuzatuvchi qurilmalar, onlayn bronlash tizimlari, logistika boshqaruvi uchun dasturiy taʼminot, raqamli xaritalar va marshrut rejalashtirish ilovalari, aloqa va	

	koordinatsiya vositalari (mobil ilovalar, radioaloqa), xavfsizlik tizimlari, ekologik transport va energiya tejovchi texnologiyalar, elektron hujjat aylanishi tizimlari, axborot bazalari, mijozlar bilan ishlash platformalari (CRM), hamda logistika jarayonlarini avtomatlashtirish vositalari
--	--

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Xodim to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Turizm qo'mitasi Kengash raisi o'rinbosari	Niyazov Sardor Muxtorovich
2	Turizm qo'mitasi Kengash a'zosi	Matkarimov Jaxongir Shomuratovich
3	Turizm qo'mitasi Kengash kotibi	Mansurov Zokir Xusanovich
4	Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Direktori	Golisheva Yelena Vyacheslavovna
5	Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Bosh mutaxassisi	Ivonina Natalya Viktorovna
6	Turizmni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti Bosh mutaxassisi	Boyka Farida Chingisovna